

O'ZBEK MILLIY RAQS SAN'ATI QIROLICHASI - MUKARRAMA TURG'UNBOYEVA

Xojimamatov Azimjon

Farg'ona Davlat universiteti "San'atshunoslik" fakulteti "Vokal va cholg'u ijrochiligi" kafedrasи o'qituvchisi

Muhammadjonova Mohinur

Farg'ona davlat universiteti "San'atshunoslik" fakulteti "Musiqa ta'limi" yo'nalishi 1-bosqich talabasi

A R T I C L E I N F O.

Kalit so'zlar: raqs, baletmeyster, xoreografiya, raqs ansamblı, opera, kompozitsiya, partiya.

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek milliy rasq san'ati qirolichasi, SSSR xalq artisti, O'zbekistonning atoqli raqqosasi, baletmeyster Mukarrama Turg'unboyeva hayoti va ijod yo'li haqida so'z boradi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2023 LWAB.

Mukarrama Turg'unboyeva - SSSR xalq artisti, O'zbekistonning atoqli raqqosasi, Davlat mukofoti laureati, baletmeyster, ommaviy o'zbek sahna raqsi tashkilotchisi, Davlatda xizmat ko'rsatgan "Bahor" nomli mashhur xalq raqsi ansamblining asoschisi, Toshkent xoreografiya bilim yurtida ta'lim beriluvchi "Doira daryo" nomli xoreografiya mahoratini o'rgatuvchi o'zbek raqs matabining tashkiliy mualliflaridan biri.

Mukarram Turg'unboyeva 1913-yilda Farg'ona yaqinida, o'rtahol oilada dunyoga kelgan. Tug'ilgan kunining aniq sanasini bilolmay, teatrga ishga kirgan kuni, ya'ni 16-sentabrni o'zining tug'ilgan kuni deb hisoblashga qaror qilgan. Keyinroq esa Mukarrama tug'ilgan kuni uchun bahorning qoq gullagan pallasi – 31-may kunini tanlagan. Otasi kichkinligidayoq olamdan o'tgan, onasini eslaydi. U tog'asini uyida tarbiyala olgan. Mukarrama Turg'unboyevani kelinoyisining onasi avval xalq maktabida, keyinchalik pedagogika texnikumiga berib o'qittirgan. Yoshligidan musiqaga ishtiyoqi baland bo'lgan Mukarrama texnikumdagi bir qancha to'garaklarga qatnashsada, ashula va raqs to'garagiga mehri bo'lakcha edi. To'garak rahbari Fotima Yo'ldoshboyeva boshchiligidagi konsert dasturlarini tuzib, texnikumda har juma kuni konsert berishgan.

1927-yilda Etnografik truppa bilan uchrashuv bo'ladi. Ular o'zlarining dasturini namoyish qiladilar. Shunda Tamaraxonim va Zuhur Qobulov Mukarrama va uning o'rtog'i Halima Rahimovani teatrda ishslash uchun birga ketishni taklif qiladi. Juda tashvishli paytlar bo'lgani sabab ular botina olmaganlar. Tamaraxonim «Dilxiroj» raqsini ijro etgan. Qo'llari hasratli tebranib, ko'zlarida azaliy chuqur qayg'u aks etgan bu raqsdan keyin, sho'x «Usmoniya» marshiga raqsga tushib ketadi. Bundan Mukarrama qattiq ta'sirlanib san'atkor bo'lishga qat'iy ahd qilib, diliqa tugib qo'yadi. 1929-yili Toshmat Qodirov rahbarligidagi to'garakni Samarqand va Toshkentga gostrolga taklif qilishdi. Gostrolga ketish oldidan "Samarqandga borganda teatrda qolaman", deb o'ziga maqsad qilib qo'yadi va maqsadiga yetadi.

Samarqandga yetib kelib teatrda aktrisa bo‘lib yangicha hayot boshlaydi. Nurxon, To‘faxon va Tursunoylarning bosqinchilar tomonidan o‘ldirilib ketilgani bir tomondan yuragiga havotir solsa, bir tomondan, teatrda aktrisalik qilgani, qo‘sish va raqs ijro etishi unga dadillik bahsh etar edi. 1927-yil maktabni bitirib, pedagogika texnikumiga o‘qishga kirgan, Farg‘ona pedagogika bilim yurtida o‘qib, havaskorlik to‘garagida qatnashgan. 1928-yil konkurs asosida etnografik ansamblga qabul qilingan. 1929-1933-yillarda Mukarrama Turg‘unboyeva Muhiddin Qori Yoqubov yordamida Samarqand davlat musiqali teatrining yordamchi guruhiga ishga kirgan, ham aktrisa, ham O‘zbek Davlat musiqali teatr studiyasi talabasiga aylanadi. Osiyo, Zebo, Oynisa, Xoljon xola, Asalxon, kabi rollari bilan aktyorlik mahoratini namoyish etgan. Biroq Toshkentni musiqali dramalarda ko‘proq raqslar qiziqtirgan. Musiqali teatr studiasida milliy raqsning atoqli pedagogi Usta Olim Komilov, mohir raqqos va artist Yusuf Qiziq Shakarjonov, farg‘onacha xoreografiya bilimdonlari, shuningdek, o‘zbek raqsi hamda Yevropacha mumtoz raqs qonun-qoidalari, milliy-sahna va estrada raqsi bo‘yicha keng bilimlarni egallagan Tamaraxonim kabi ustozlardan saboq olgan. Usta Olim Komilov va Tamaraxonimning maxsus raqs mashg‘ulotlarida qatnashib, milliy raqs asoslarini hamda “Duchava”, “Katta o‘yin”, “Usmoniya”, “Sadr”, “Ufori soxta” nomli umumiy raqslarni, “Dilxiroy” yakka raqsini o‘zlashtirib olib, ijro eta boshlaydi. Keyinroq, Rossiyadagi taniqli baletmeyster va pedagog Konstantin Bek studiyada Yevropa mumtoz raqsidan dars bergen¹

Mukarrama studiyada solfedjiordan dars bergen pedagog Sayanovaning qo‘lida qo‘sish kuylashni o‘rgangan. Mahoratli bilimlar majmui Mukarramaga milliy raqs harakatlarini o‘rganib, nafas olish usullari, mushak-bo‘g‘imlarning ishlashi kabi ijodiy jarayonning barcha tayyorlov holatlarini yashirishni o‘rgandiki, tomoshabinlar tana harakatini ko‘rmay, faqat qalb harakatlanishini qabul qilishardi. Shu orada Mukarram Turg‘unboyeva musiqali teatr artisti Xoldorov Nizom Xoldorovichga turmushga chiqdi, 1934-yil esa ularning farzandi Xoldorov Telman Nizomovich dunyoga keldi. Mukarrama o‘zbek xoreografiyasining oltin fondiga kiritilgan “Tanovar”, “Katta o‘yin”, “Jonon”, “Pilla”, “Paxta” kabi o‘zbek milliy raqslarining assoschisi va ijrochisi hisoblanadi. Uning har bir chiqishi chinakam doston edi. Bu haqda taniqli san’at va madaniyat arboblarining u haqidagi fikrlari ham tasdiqlaydi.

1935-yil Usta Olim va K.Bek bilan hamkorlikda “Paxta” baletini sahnalashtirdi. 1935-yildan o‘zi mustaqil raqslar yarata boshlaydi. Bu ish “Gulsara” musiqali dramasidan boshlangan. 1937-yil Usta Olim Komilov bilan birga “Gulsara”, “Farhod va Shirin” spektakllariga raqslar sahnalashtiradi. 1937-yil Moskvada bo‘lib o‘tgan o‘zbek san’ati dekadasida qatnashib, raqqosa va baletmeyster sifatida yuqori baho oladi.²

1939-yildan Navoiy nomidagi opera va balet teatrinda ishlaydi. Balet bo‘yicha A. Tomskiy, I. Arbatov, V. Gubskaya, P. Yorkinlardan ta’lim oladi.

“Shohida” baletini sahnalashtirib, o‘zi bosh rolni ijro etadi. Gulandom, Oqbilak, Zarema, hind vakilasi kabi obrazlarni yaratishda Turg‘unboyeva yevropa baleti usullaridan ijodiy foydalandi. Bir qator operalarda baletmeysterlik qildi. Ikkinci jahon urushi yillarida konsert brigadalari bilan Zakavkazye frontlarida bo‘ldi. Yakka va umumiy raqslar yaratdi: “Uyg‘urcha raqs”, “Jonon”, “Rohat”, “Raqqosa”, “Tanavor”, “Nog‘ora”, “Buxorocha”, “Gulsara” va boshqa 1947-yil Usta Olim bilan Tamaraxonimning “Doira darsi”ni qayta tiklaydi. “Dilbar”, “Andijon polkasi”, “Pilla” raqslarini yaratadi. “Toxir va Zuxra”, “Gulsara” operalariga baletmeysterlik qiladi. 1951-1959-yillarda Moskvada bo‘lib o‘tgan o‘zbek adabiyoti va san’ati dekadasida qatnashgan. P.Yorkin bilan birgalikda “Ozoda chehra” baletini sahnalashtiradi.

Turg‘unboyeva 1950-yillarning boshlariga kelib, O‘zbekistonning eng mashhur raqqosasi va yetakchi baletmeysteri darajasiga ko‘tariladi. Yakka raqslarning mohir ijrochisi, ommaviy o‘zbek raqslarining

¹ Mayya Merkel, Mukarrama opa i sorok krasavets, Moskva, 1980.

² E.Sayitova, N.Abraykulova “Xoreografiya va raqs san’ati asoslari” T.2005

ijodkori sifatida taniladi. Uyg'ur, tojik, hind, afg'on, mo'g'ul, koreys xalqlari raqlari asosida o'ziga xos sahnnaviy raqlar sahnlashtiradi. Raqs san'atida erishgan yutuqlarini Xitoy, Koreya, Albaniya, Italiya, Avstriya, Afg'oniston, Hindiston, Kombodja, Tailand mamlakatlarda namoyish etadi. Ayniqsa, u tayyorlagan dastur, Q.Mirkarimova, F.Kaydani, T.Yunusova raqlari hamda Turg'unboyeva ijrosidagi "Tanavor", "Jonon", "Andijon polkasi" chet el tomoshabinlarida chuqur taassurot qoldiradi.

1955-yil Turg'unboyeva o'zi pedagoglik qilgan Toshkent xoreografiya bilim yurti qizlaridan 12 tasini ajratib olib, raqqosa qizlar guruhini tashkil qiladi. 1957-yil Mukarrama Turg'unboyeva "Bahor" milliy raqs ansamblini yaratadi.

Bahor ansambl ijrochilarining asosini Toshkent Xoreografiya bilim yurtini tamomlagan qizlar va Toshkent davlat konservatoriysi, O'zbekiston musiqa maktablarini tugatgan jo'rnavoz sozanda, xonandalar tashkil etadi. U Ansambl uchun 15 ta konsert dasturini tuzdi. "Bahor", "Ufori sanam", "Qo'g'irchoq", "Farg'ona ruboyisi", "O'ynasin", "Munojot", "O'zbek valsi", "Gulnoz", "Aylanma", "Beshqarsak", "G'ayratli qiz", "Yetti go'zal", "Toshkent piyolasi", "Shabadalar", "Ey, sho'x jonon", "Alyor", "Qari navo", "Bayot", "Zang", "Sho'x qiz", "Xorazmcha", "Paxta", "Katta o'yin", "Uchrashuv", "Lazgi", "Dildor", "Jonon", "Dilbar" kabi umumiy, yakkaxon va duet raqlar yaratdi.³ 1957-yil ansambl Jahon yoshlari va studentlari festivalining oltin medalini olishga muvaffaq bo'ldi. 1960-yil "Bahor" ansambliga Davlat ansambl maqomi berilishi munosabati bilan Turg'unboyeva ansamblni iqtidorli yosh raqqosalar bilan mustahkamlab borish, ularning mahoratini oshirish, yangi raqs va raqs dasturlarini yaratish, badiiy saviyani hamisha baland ushlab turish, gostrol safarlarini yuqori darajada o'tkazish, shu maqsadda o'zbek raqs merosini o'rganish, jahon xalqlari raqlarini sahnlashtirish masalalari bilan umrining oxirigacha shug'ullanib keldi. Ansambl bilan Germaniya, Shvetsiya, Vengriya, Chexoslovakiya, Polsha, Misr kabi mamlakatlarda gostrolda bo'lgan. Uning o'quvchilari orasida Izmaylova, Mirkarimova, Gulnora Mavayeva, Ra'no Nizomova, Valentina Romanova, Tamara Yunusova, Ravshanoy Sharipova, Ma'mura Ergasheva, Nasiba Madrahimova, O'g'iloy Muhammedova kabi yetuk san'atkorlar vujudga kelgan. Ansambl Moskvada bo'lib o'tgan jahon yoshlari va talabalari 6-festivali, Leypsigda o'tkazilgan xalq raqlari 8-festivali laureati bo'lgan.⁴

Mukarrama Turg'unboyeva 1978-yil 26-noyabr kuni vafot etgan. Toshkent shahridagi Chig'atoy qabristoniga dafn etilgan. "O'zbekraqs" milliy raqs birlashmasiga, Toshkent ko'chalaridan biriga Turg'unboyeva nomi berilgan. Turg'unboyeva hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Salom, Bahor", "San'atga bag'ishlangan umr" "Mukarrama opa va qirq go'zal" filmlari ishlangan. 1993-yil 10-sentabrda Turg'unboyeva muzeyi ham ochildi. Muzey Turg'unboyevaning ijodiy merosi va faoliyatini saqlash va targ'ib qilish bilan shug'ullanadi. 1993-yildan buyon Turg'unboyeva nomidagi yosh ijrochi raqqosalar tanlovi o'tkazilmoqda.

Birlashma qoshida raqs merosini saqlash va yoshlarga o'rgatish maqsadida «Mukarrama» studiyasi tashkil etilgan. Vafotidan so'ng "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan.

Mukarrama Turg'unboyeva o'zbek san'ati tarixida uning rivojiga ulkan hissasini qo'shgan buyuk san'atkor sanaladi. Dramatik aktrisa sifatida milliy teatrning poydevorini qurbanlar qatorida, hamda o'zbek raqs san'atini butun jahonga tanitgan, o'zbek raqs maktabi asoschisi sifatida ardoqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mayya Merkel, Mukarrama opa i sorok krasavets, Moskva, 1980
2. Avdeyeva L. A., Balet Uzbekistana, T. 1973
3. Tanets Mukarramo Turgunbayevoy, T. 1989
4. Mukarrama Turg'unboyevaga taziyanoma, "Sovet O'zbekistoni" gazetasi.

³ Tanets Mukarramo Turgunbayevoy, T. 1989

⁴ E.Sayitova, N.Abraykulova "Xoreografiya va raqs san'ati asoslari" T.2005

5. Muhsin Qodirov, Mohina Ashirova."Bahor ansamqli" O'zME Birinchi jild. T. 2000.
6. L. Avdeeva "O'zbek milliy raqs tarixidan". T.2001
7. E.Sayitova, N.Abraykulova "Xoreografiya va raqs san'ati asoslari" T.2005
8. Achildiyeva M. Ikromova F. The ballet "Tomaris" in the culture of Uzbek ballet plase and significance Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development ISSN (E):2751-1731 15-19 bet (Berlin Germany 2022)
9. Achildiyeva M. Ikromova F. "O'zbek musiqa san'atida maqomning o'rni" Proceedings of Global Technovation 2nd International Multidisciplinary Scientific Conferense . London 2020 90-93 bet
10. Achildiyeva M. Xojimamatov A. Yuldasheva D. Ikromova F. "Uyghur Folk Singing Genre" Turkish Online Journal of Qualitative (TOJQI) Inquiry (Turkiya 2021) 3509-3517 bet (SCOPUS)
11. M.Achildiyeva 2021 Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heristage Annals of Romanian Society for Cyell Biology 25(4) 9092-9100
12. Achildiyeva M, Xojimamatov A, Ikromova F (2022) Shashmaqom saboqlari: "Navo" maqomi xususida. INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH 11(01) 55-58
13. Maxfuzakhon Karimova, Muyassarkhon Achildiyeva, Farangiz Ikromova (2021) USE FROM REDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL "An open accyess, peyer reviyewyed multidisciplinary journal" 2 (4) 460-463
14. Xojimamatov A. Nazarxodjayeva R. Korrupsiya – asr vabosi
15. Ikromova F. O'ZBEKISTON XALQ HOFIZI OCHILXON OTAXONOVNING HAYOT YO'LI CHIZGILARI. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE Vol. 1 No. 3 (2022): 151-156
16. Achildiyeva M, Ikromova F REYNGOLD GLIER VA TOLIBJON SODIQOVNING «LAYLI VA MAJNUN» OPERASIDA MAQOM YO'LLARINING QO'LLANILISHI UIF-2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 23-28 bet
17. Xojimamatov A, Ikromova F. MUSIQIY SAHNAVIY ASARLARNING IJROCHILIK MUAMMOLARI (O'ZBEKISTON KOMPOZITORLARI IJODI MISOLIDA) UIF-2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 29-33 bet
18. Ikromova F. SHASHMAQOMDA TURKUM ASAR TARONALARI UIF 2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 29-33 bet.
19. Hojimamatov Azimjon CHANG CHOLG'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI Oriyental Renaissance: Innovative, yeducational, natural and social sciyencies VOLUME 2 | ISSUE 10/2 ISSN 2181-1784 Sciyentific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 (265-275 bet).
20. Muyassarxon Achildiyeva SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUYe 10/2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 (344-352 bet).
21. Xojimamatov Azimjon, Muhammadjonova Mohinur. VIKTOR ALEKSANDROVICH USPENSKIYNING IJODIY YO'LI Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and

social sciences (E) ISSN: 2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(3), March, 2023 587-591 bet.

22. Ачилдиева Муяссархон, Аткиёева Рухшона. АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА САНЪАТНИНГ ТУТГАН ЎРНИ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(3), March, 2023 578-583 bet.